

Fitch Ratings

«Asaka» bank kredit reytingini tasdiqladi

O'zbekistonda yetakchi banklardan biri sanalmish "Asaka" Aksiyadorlik tijorat banki o'z faoliyatining boshidanoq mamlakat moliya xizmatlari bozorida yetakchi mavqega ega bo'lib, yetakchilik mavqeini doimiy saqlab kelmoqda. Bank, mamlakat iqtisodiy hayotining barcha ishtirokchilari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga keng ko'lamdagi bank xizmatlarini ko'rsatish vazifasini qo'ygan. Bank, har bir mijozning individual talabidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborini ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda.

"Asaka" bank tomonidan uzoq muddatli o'sish va rivojlanishga erishish, investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazishga intilish orqali yuqori raqobatbardosh, ichki bozor va eksport talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga va xorijiy xamkorlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Buni esa, mamlakat ichki reyting kompaniyalarining yuqori reyting baholari hamda jaxonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari tasdiqlab turibdi.

Jumladan, 2015 yil 27 iyulda «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi "Asaka" bank xalqaro kredit reyting istiqbolini «**BARQAROR**» deb tasdiqladi.

"Asaka" bankning yuqori reyting baholariga sazovor bo'lishi, bankning xalqaro maydondagi obro'sini yanada oshib borayotganligidan va mamlakat bank tizimidagi yetakchilik mavqeini mustaxkamlanayotganligidan dalolat beradi. Bu esa "Asaka" bankning yana bir bor ishonchli bank ekanligidan guvohlik beradi va aholining unga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Ta'kidlash lozimki, 2015 yil 1 iyul holatiga bank jami aktivlari miqdori 6 187,7 mlrd.so'mni, kapital hajmi 874,9 mlrd.so'mni, kredit qo'yilmalari va lizing xizmatlari hajmi 2 882,4 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil qiladi.

2015 yil birinchi yarmi davomida "Asaka" bank tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini rivojlantirishga 781,9 mlrd.so'm, kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga 647,2 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi, Natijada ko'rlab yangi ish o'rinlari yaratildi.

“Asaka” bank tomonidan past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish va qayta tiklash, ularni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash hamda qaytadan jihozlashni ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 61,7 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda investitsiyalar kiritildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 423,3 mlrd. so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 56,2 mln.AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi. Mazkur korxonalarda 4216 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi

“Asaka” bank jamoasi joriy yilda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.